


Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal

IF(IMPACT FACTOR)9.573/2024 ISSN 2181-1881



# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyqa - الماتريدية - Матуридизм



**SLIB.UZ**  
Scientific library of Uzbekistan

4/2024

## ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ

**Музаффар КОМИЛОВ** – тарих фанлари номзоди, доцент

**Шайх Нуриддин ХОЛИҚНАЗАР** – Ўзбекистон мусулмонлари идораси раиси, муфтий

**Баҳром АБДУҲАЛИМОВ** – Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси вице-президенти

**Уйғун ҒАФУРОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

**Фирдавс АБДУХОЛИҚОВ** – Ўзбекистондаги Ислом цивилизацияси маркази директори

**Давронбек МАХСУДОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Зоҳиджон ИСЛОМОВ** – филология фанлари доктори, профессор

**Аҳаджон ҲАСАНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Шовосил ЗИЁДОВ** – тарих фанлари доктори, профессор

**Жамолiddин КАРИМОВ** – тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

**Аҳмад Саъд ДАМАНҲУРИЙ** (أحمد سعد الدمنهوري) – илоҳиёт фанлари доктори

**Маҳмуд Эрол ҚИЛИЧ** (Mahmud Erol KILIÇ) – доктор, профессор, IRCICA Бош директори

**Назир Муҳаммад АЙЁД** (نظير محمد عياد) – илоҳиёт фанлари доктори, Миср муфтийси

**Режеп ТУЗЖУ (Reser Tuzcu)** – илоҳиёт фанлари доктори, профессор

**Аширбек МУМИНОВ** – тарих фанлари доктори, профессор, IRCICA Бош директорининг дастурлар бўйича маслаҳатчиси

**Камалуддин Нурдин МАРЖУНИ (Kamaluddin Nurdin Marjuni)** – илоҳиёт фанлари доктори, Малайзия ислом фанлари университети кафедра мудири

Ўзбекистон Республикаси Дин ишлари  
бўйича қўмитасининг 2025 йил 24 январдаги  
03-07/491-сонли хулосаси асосида тайёрланди.



### МУАССИС:

ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ  
АКАДЕМИЯСИ ҲУЗУРИДАГИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО  
ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИ

Бош муҳаррир:

**Жамолiddин Каримов,**  
Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори

Муҳаррир ўринбосари:

**Зафар Фаҳриддинов,**  
Исломишунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори

Саҳифаловчи:

**Зарифжон Арслонов**

Дизайнер:

**Зарифжон Ғуломов**

«Мотуридийлик» журнали  
Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация  
комиссиясининг 2021 йил 30 декабрдаги  
310/10-сон қарори билан диссертация асосий илмий  
натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий  
нашрлар рўйхатига киритилган.

Журнал 2021 йил 12 декабрда Ўзбекистон  
Республикаси Президенти Администрацияси  
ҳузуридаги Ахборот ва оммавий  
коммуникациялар агентлиги томонидан  
№1139 рақами билан рўйхатга олинган.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳар, Шайхонтоҳур тумани,  
Абдулла Қодирий кўчаси, 11-уй.

**E-mail:** maturidijournal.org

**Web-sahifa:** info@moturidiy.uz

Телефонлар: (+99871) 244-35-21,  
(+99871) 244-35-47

## МУНДАРИЖА

### ИСЛОМШУНОСЛИК

**Ithomjon Bekmirzayev, Sherzod Umaraliyev.**

XIII аср Мовароуннахрда ҳанафий фикҳ соҳаларининг ривожланиш тенденциялари ..... 4

**Ibrohim Usmonov.**

Ҳақим Термизийнинг «Манҳиёт» асарида ҳукмларнинг мақсад, урф, замон ва маконга кўра ўзгариши масаласининг ёритилиши..... 13

**Nargiza Shoaliyeva.**

Jaloliddin Rumi y irfonida ishq va ayol oʻrni..... 21

**Aziza Mannopova.**

Абу Юсуфнинг «Китоб ал-хароҷ» асари мавзулари таҳлили..... 27

**Mashhura Kadirova.**

Islam as a religious system based on the principles of virtue and peace..... 38

**Sevara Karimova.**

Нақшбандия тариқатига оид манбаларда Хожа Муҳаммад Порсонинг илмий таъсири..... 45

**Abubakr Mustafoyev.**

Sahobalar va tobeinlar davridagi ohod xabarning farqi ..... 53

**Fotima Xojaliyeva, Doniyor Muratov.**

Muhammad Sanoullloh Mazhariyning hayoti va ilmiy merosi..... 60

### ДИНШУНОСЛИК

**Mumin Mirzo Abdupattayev.**

Sobiylik eʼtiqodi haqida..... 68

### ИСЛОМ ТАРИХИ ВА МАНБАШУНОСЛИК

**Raziya Matibayeva.**

Абул Муайяд Хоразмийнинг ҳаёти ва илмий фаолияти..... 77

**Muhabbatkhon Agzamova.**

Илк ислом тарихига оид асарларнинг шаклланиши ва уларнинг ўзига хос жиҳатлари..... 85

**Muslim Atayev.**

Уструшана – Марказий Осиёдаги савдо-иқтисодий марказлардан бири..... 94

**Fotima X. XOJALIYEVA,**  
*Master of International Islamic  
Academy of Uzbekistan*  
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: [hojaliyevaf@gmail.com](mailto:hojaliyevaf@gmail.com)

**Doniyor M. MURATOV,**  
*Associate Professor of the International  
Islamic Academy of Uzbekistan*  
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan  
E-mail: [doniyorhoji@mail.ru](mailto:doniyorhoji@mail.ru)

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-4/8

**MUHAMMAD SANULLOH  
MAZHARIYNING HAYOTI VA  
ILMIY MEROSI**

**THE LIFE AND SCHOLARLY LEGACY OF  
MUHAMMAD THANULLAH MAZHARI**

**ЖИЗНЬ И НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ  
МУХАММАДА САНАУЛЛАХ МАЗХАРИ**

**KIRISH**

Qozi Sanoulloh Mazhariy 1731-yil Hindiston tarixida katta ahamiyatga ega, qadimiy manzilgoh, avliyolar, olimlar, fotihlar yashab o'tgan Panipat shahrida ziyolilar oilasida tug'ilgan. Shoh Valiyulloh Dehlaviyning otasi Shoh Abdurrahim asos solgan va Hindiston musulmonlarining aqliy, axloqiy va diniy tarbiyasida muhim o'rin tutgan «Rahimiya» madrasasida tahsil olgan qozi Sanoulloh tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf ilmlarini o'rganib, turli sohalarda asarlar yozgan (Hasaniy, 1999).

Shaxsning shakllanishida inson yashaydigan ijtimoiy muhit katta ahamiyatga ega. Shu boisdan ham olimning hayoti, shaxsiyati va ilmiy qarashlari haqida so'z yuritishdan oldin u yashagan davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy xususiyatlari haqida ma'lumot berish zarur.

Hindiston yarimoroli hijriy birinchi asrdan buyon islom ilmlariga qo'shgan hissasi va yerlik musulmonlarning turli din unsurlari bilan birga o'tkazgan o'n to'rt asrlik tajribasi tufayli undan islom olami ko'p narsalarni o'rganishi mumkin bo'lgan muhim mintaqadir. Bu o'lkada yo'lga qo'yilgan chuqur ilmiy an'ana tufayli ko'plab islom ulamolari ta'lim oldilar va natijada o'z xalqlarini ham, boshqa hududlardagi musulmonlarni ham ma'rifatli qildilar.

Sanoulloh Mazhariy yashagan davr Hindistonda hokimiyat bo'shlig'i mavjud davrlardan biri bo'ldi. Bir tomondan, yarimorolda Britaniya faoliyati kuchaygan va Boburiylar davlatining qulash jarayoni boshlangan, boshqa tomondan esa bu siyosiy inqirozning xalq qatlamlarida aks etishi, musulmonlar hayotiga yot unsurlarning kirib kelishi, musulmonlar o'rtasidagi sunniy-shia ziddiyatlari kuchaygan edi. 1803-yilda hindlarning hukmronligi tugatilib, davlat Britaniya imperiyasi foydasiga xizmat qiluvchi qo'g'irchoq hokimiyatga qoldirildi. Bu notinch sharoitda olimlar o'sha davr siyosiy ma'muriyatining harakatlariga turlicha munosabat bildirganlar.

XVIII asr Hindistonda diniy ilmlarni o'rganish e'tibor markazida bo'lib, butun Dehli bo'ylab islomiy ta'lim beriladigan madrasalar faoliyat yuritgan. Mintaqadagi nufuzli olimlardan Shoh Valiyulloh Dehlaviy (vaf. 1762-y.) qarashlari davrning siyosiy ahvoli doirasida tadqiq qilinib, ilmiy faoliyat bilan bir qatorda Hindiston siyosiy tarixida faol rol o'ynagan olim sifatida alohida ta'kidlanadi. Shoh Valiyulloh Boburiylar davlatining qulashiga qarshi olib borilgan siyosiy harakatning rahbari sifatida ko'rsatiladi. Ayniqsa, uning Qur'on va hadis ilmlariga doir «Hujjatulloh al-bolig'a» nomli mashhur asari ushbu davr ijtimoiy hayotiga o'z tasirini o'tkazgan (Dovudiy, 1995).

XII asrdayoq Hindistonda qiroat va tajvid kabi Qur'on ilmlarini o'qitish keng yoyilgan edi. Shimoliy Hindistonda Mo'lton yaqinidagi Aror kabi kichik shaharchada Qur'on yetti qiroatda o'qilardi. Hindiston musulmonlari orasida Qur'on yod olish an'anasi keng tarqalgan bo'lib, manbalarda Sulton Muhammad Doroshukuh (vaf. 1659-y.) viloyat hokimligi davrida Lahorning bir qismida 5000dan ortiq hofiz borligi qayd etilgan.

Hindiston yarimorolida yozilgan tafsirlar tarixi XIV asrga borib taqaladi. Mintaqada yozilgan birinchi tafsir, Ibn Toj nomi bilan ham tanilgan Abu Bakr Is'hoq ibn Tojiddin (vaf. 1336-y.)ga tegishli «Javohir al-Qur'on» asari hisoblanadi. Bu davrdan keyin og'ir uslubda yozilgan sharhlar asosan ulamolar va sufiylarga manzur bo'ladi. Chishtiya tariqatining yetakchilaridan biri Sayyid Muhammad Gesudaro'zning (vaf. 1422-y.) tafsiri ham shu turda yozilgan. Mahdum Muhaymiyning «Tabshir ar-Rahmon» va «Taysir al-Mannon» asarlari Ibn Arabiy asarlari darajasidadir. Bu arabcha tafsirlardan tashqari, Shahobiddin Davlatobodiyning forscha

**Annotatsiya.** Maqolada XVIII asr Hind o'lkasining mashhur ulamolari Shoh Valiyulloh Dehlaviy (1703-1762 yy.) va Mirzo Mazhari Joni Jonon Naqshbandiy (1699-1781 yy.)larning ko'zga ko'ringan shogirdi Sanoullloh Panipatiy Naqshbandiy Mujaddidiy Mazhariy (1731-1810 yy.) haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Sanoullloh Mazhariy yoshligidan diniy ta'lim olishga kirishib, ko'plab ilmlarni egallaydi. Yosh bo'lishiga qaramay 1750-yilda Panipat shahriga qozi qilib tayinlanadi. U fiqh, hadis, tafsir, qiroat, tasavvuf, lug'at kabi ilmlarda chuqur bilim egasi bo'lgani sabab hamasrlari tomonidan «Zamonining Bayhaqiysi», «Zamonining Tahoviysi» deya e'tirof etilgan.

Shuningdek, maqolada Sanoullloh Mazhariy tasavvuf ilmini shayx Sunnomiy (vaf. 1748-y.) va Mirzo Mazhari Joni Jononlardan o'rganib, ularga o'rinbosar bo'lgani, naqshbandiya tariqatida ulug' maqomni egallagani hamda olimlarning bu boradagi e'tiroflari hatto ayoli Bibi Achibe ham tariqat yo'lini tutgan ayollardan bo'lgani ochib berilgan.

Xulosa qismida Sanoullloh Mazhariy butun umrini islom shariatini o'rgatish, yetkazish, himoya qilish va targ'ib qilishga bag'ishlab, tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf kabi turli ilm sohalarga doir o'ttizdan ortiq asar yozib qoldirgani bayon qilingan. Uning «Tafsir al-Mazhariy», «La budda minhu», «Haqiqat al-Islom», «Tazkirat al-mavt va-l-qubur», «Tazkirat al-ma'ad», «Irshod at-tolibin» kabi asarlari chop qilingan.

**Kalit so'zlar:** Sanoullloh Mazhariy, Hindiston, tafsir, mufasssir, hadis, fiqh, qozi, tasavvuf, naqshbandiylik.

**Abstract.** This article provides insights into Thanauallah Panipati Naqshbandi Mujaddidi Mazhari (1731–1810), a prominent student of Shah Waliullah Dehlavi (1703–1762) and Mirza Mazhari Jan Janan Naqshbandi (1699–1781), two of the most notable scholars of 18th-century India.

From an early age, Thanauallah Mazhari pursued religious education and mastered numerous disciplines. Despite his youth, he was appointed as a judge in Panipat in 1750. His contemporaries honored him with the titles «Bayhaqi of his time» and «Tahawi of his time» for his profound knowledge in fiqh, hadith, tafsir, qira'ah, Sufism, and linguistics.

The article highlights that Sanaullah Mazhari studied the science of Sufism under Sheikh Sunnami (d. 1748) and Mirza Mazhari Jan Janan, eventually becoming their khalifa. He achieved a distinguished status within the Naqshbandi order, and even his wife, Bibi Achibe, was recognized as a devoted follower of the order.

The conclusion emphasizes that Sanaullah Mazhari dedicated his life to teaching, disseminating, defending, and promoting Islamic Sharia. He authored over thirty works across various fields, including tafsir, hadith, fiqh, and Sufism. Notable among his works are «Tafsir al-Mazhari», «La budda minhu», «Haqiqat al-Islam», «Tadhkirat al-mawt wa al-qubur», «Tadhkirat al-Ma'ad», and «Irshad al-Talibin», which have been widely studied and published.

**Keywords:** Thanauallah Mazhari, India, tafsir, mufasssir, hadith, fiqh, judge, sufism, naqshbandi order.

**Аннотация.** В статье представлена информация о Санауллах Панипати Накибанди Мужаддиди Мазхари (1731-1810), который был выдающимся учеником шаха Валиулла Дехлави (1703-1762) и Мирзы Мазхари Джан Джанана Накибанди (1699-1781), известных ученых Индии XVIII века.

Санауллах Мазхари с юных лет начал получать религиозное образование и овладел многими науками. Несмотря на свой молодой возраст, он был назначен судьей в Панипате в 1750 году. Современники признавали его «Байхаки своего времени» и «Тахави своего времени», поскольку он обладал глубокими познаниями в фикхе, хадисах, тафсире, кираа, суфизм и лингвистика.

Также в статье раскрывается, что Санауллах Мазхари обучился науке суфизма у шейха Суннами (ум. 1748) и Мирзы Мазхари Джани Джанана и стал их халифом, и занимал высокое положение в ордена Накибанди, а также признания ученых на этот счет и даже его жена Биби Ачипе была одной из жениц, пошел по пути суфизма.

В заключительном разделе рассказывается, что Санауллах Мазхари посвятил всю свою жизнь обучению, передаче, защите и пропаганде исламского шариата, написав более тридцати работ в различных областях науки, таких как тафсир, хадис, фикх, суфизм. Его книги «Тафсир аль-Мазхари», «Ла будда минху», «Хакикат аль-ислам», «Тазкират аль-мавт валь-кубур», «Тазкират аль-маад», «Иршод ат-Талибин», в котором были опубликованы такие произведения.

**Ключевые слова:** Санауллах Мазхари, Индия, тафсир, муфасссир, хадис, фикх, кази, суфизм, накибандизм.

«Bahri Mavvoj» asari ham og'ir uslubda yozilgan. Shayx Nizomiddin Avliyoning shogirdi Xo'ja Qosim tomonidan omma uchun yozilgan «Latoif at-tafsir» asari esa bugungi kungacha yetib kelmagan. Shoh Valiyulloh va uning o'g'illari Qur'oni karimni fors va urdu tillariga tarjima qilgandan so'ng, mintaqa aholisi

Qur'on bilan bevosita aloqada bo'lish imkoniga ega bo'lgan. Shuningdek, Shoh Valiyullohning fors tilidagi «al-Favz al-kabir» nomli asari Hindistonda tafsir usuli sohasidagi ilk asar bo'lib, uning sa'y-harakatlaridan keyin o'lkada ko'plab sharhlar yozilgan (Birişik, 2001).

## ASOSIY QISM

Tafsir, hadis va fiqh olimi, shuningdek, mutasavvif Sanoullah Mazhariyning otasi qozi Muhammad Habibulloham ham zamonasining buyuk olimi va mutasavvifi bo'lgan. Sanoullah Mazhariy otasidan yosh ayriladi. Shundan so'ng uning tarbiyasi bilan onasi va akasi shug'ullangan. Fiqhda hanafiy mazhabi, tasavvufda esa naqshbandiya tariqatini mahkam tutib, naqshbandiya tariqatining yetuk vakili Mazhari Joni Jonon (vaf. 1780-y.)ning eng yaqin shogirdlaridan biri bo'lgan.

Manbalarda Sanoullah Mazhariyning ilk ta'limi qanday bo'lgani haqida ko'p ma'lumotlar yo'q. Biroq, o'z davrining umumiy ta'lim an'anasi singari, u ham yoshligida Qur'on yodlagan va mahalliy olimlardan arab tilini o'rgangan, keyinroq esa fors tilini o'zlashtirgan. So'ng Dehliga borib, Shoh Valiyulloham Dehlaviydan fiqh va hadis saboqlarini olgan. Shariat ilmlari bo'yicha ta'limni tugatgandan so'ng, naqshbandiya tariqati shayxi Muhammad Obid Sunnomiy (vaf. 1747-y.) bilan bog'langan, keyin uning maslahati bilan shayx Mazhari Joni Jononga shogird bo'ladi. O'n sakkiz yoshga to'lganida, madrasa ilmidan ham, tariqatdan ham ijoza olgan. So'ng Panipatga qaytib, asarlar yozish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi hamda to'vafotiga qadar qozilik qiladi (Talal:nashr yili ko'rsatilmagan). U 1810-yili Panipatda vafot etgan va shu yerda dafn etilgan. Vasiyatnomasida shayx Mazhari Joni Jonon bergan matoni kafan sifatida ishlatishni buyurgan (Talal:nashr yili ko'rsatilmagan).

Sanoullah Mazhariy mahalla muallimlari qo'lida o'qishdan tashqari, yoshlik chog'laridayoq ustozining otasi Shoh Abdurrahim asos solgan Rahimiya madrasasida ta'lim olishni boshlagan. Bu yerda davrining yetuk olimlari va tariqat shayxlaridan saboq oldi. «Rahimiya» va «Farangi Mahal» madrasalari mintaqada an'anaviy islom ta'limi va tadqiqiga salmoqli hissa qo'shgan va ta'siri bugungi kungacha davom etib kelmoqda. 1660-yilda asos solingan «Rahimiya» madrasasi Shoh Valiyulloham Dehlaviyning otasi Shoh Abdurrahim boshqaruvida katta yutuqlarga erishib, XIX asr oxirigacha ilm-fan va tadqiqot markazi sifatidagi ahamiyatini saqlab qoldi (Erdoğan, 1994). Bu yerda Shoh Valiyulloham va uning o'g'illari Abdulaziz, Rafiuddin, Abdulqodir, nabiralari hamda boshqa ko'plab taniqli olimlar

ta'lim olganlar (Birışık, 2001; Pakdemirli, M.Nuri, Abdülhamit Birışık, 2013). Ushbu madrasa hind musulmonlarining aqliy, axloqiy va diniy tarbiyasida, hayotga qarashlarida juda muhim o'rin tutgan. Shoh Valiyulloham otasidan keyin, Makkai Mukarrama va Madinai Munavvaradagi hadis ta'limidan so'ng 1732-yildan boshlab madrasa mudarrisligini davom ettirgan.

Sanoullah Mazhariy «Rahimiya» madrasasida o'qish orqali Shoh Valiyulloham Dehlaviy (vaf. 1762-y.)ning ruhiy kamolotidan bahramand bo'lgan. Shoh Valiyulloham Dehlaviy o'z asrining eng buyuk mutafakkirlaridan biri bo'lgan. U «Shoh Valiyulloham» nomi bilan mashhur bo'lib, asl ismi Ahmad ibn Abdurrahim ibn Vajihiddin Umariy Dehlaviy edi. «Shoh» so'zi forscha bo'lib, «podshoh» ma'nosini bildiradi va sufiylar, mashoyixlarga nisbatan qo'llaniladi.

Shoh Valiyullohning tug'ilgan joyi haqida turli fikrlar bildirilgan. Kimdir Dehli desa, kimdir Muzaffarnagarning Puhlet qishlog'i deydi. U 1762-yilda vafot etgan va Dehlida dafn etilgan. Dehlaviyning otasi shayx Abdurrahim Boburiy hukmdor Avrangzeb Olamgir (vaf. 1707-y.)ning buyrug'i bilan yozilgan «Fatovoyi Olamgiriya» asarining tayyorlanishida qatnashgan va o'zi asos solgan «Rahimiya» madrasasida mudarrislik qilgan (Siyalkuti).

Shoh Valiyulloham fiqh, tafsir, usuli tafsir, kalom, aqid, tasavvuf kabi ilm-fanning turli sohalarida asarlar yaratgan, shuningdek, avtobiografiya, she'r hamda siyosiy mavzularda maqolalar yozgan serqirra olim bo'lgan. U davrdagi notinch vaziyatga yechim izlaganlarning yetakchilaridan biri edi. Ba'zi buzg'unchi fikrli kishilarning musulmonlar va boshqa mahalliy xalqlarga qarshi niyatlarini vaqtida aniqlagan Dehlaviy va uning o'g'illari ularning salbiy ta'sirini kamaytirish choralarini ko'rdilar. Dehlaviy xalqni mustamlakachilarga qarshi birlashtirish yo'lida Qur'on ta'limiga katta ahamiyat bergan, mamlakatdagi qarshiliklarga qaramay Qur'onni «Fath ar-Rahmon fi tarjima al-Qur'on» nomi bilan fors tiliga tarjima qilgan. Xususiy o'qituvchilar yordamida o'g'illariga mintaqa aholisini birlashtiruvchi urdu tilini o'rgatgan va ularni Qur'on tarjimasini va tafsiriga yo'naltirgan. Shuningdek, u o'z jamiyati boshdan kechirayotgan tartibsizliklarning oldini olish uchun bor imkoniyatini ishga solgan. U

ulug' zotlarga maktublar yozgan, ba'zi rahbarlarga maslahatlar bergan, bu orqali musulmon jamiyatini diniy-axloqiy isloh qilishni maqsad qilgan. Bu notinch davrda Shoh Valiyullohning so'zlari va asarlari Hindistonda tez tarqaldi (Bilmen, 2014).

U o'lkada diniy ilmlarning rivojlanishi va ilohiyotni tom ma'noda tushunishga o'z hissasini qo'shdi. Faqihlar va sufiylar o'rtasidagi mavjud sovuqqonliklarni bartaraf etdi, borliq haqidagi salbiy fikrlarni yumshatib, diniy izlanish va tadqiqotlar uchun yangicha ruh va tafakkur paydo qildi. Shoh Valiyulloh dars bergan «Rahimiya» madrasasi ushbu islohotlar harakatining markazi bo'lib xizmat qilgan (Özdemir, 1989; Özen, 1992). Bu ilm maskaniga Hindistonning turli burchaklaridan ulamo va talabalar oqib kelishardi. Uning ishlarini keyinchalik o'g'illari va shogirdlari davom ettirdilar. XVIII asrdan keyin Hindistonda faoliyat ko'rsatgan ko'plab diniy ta'lim muassasalarining ochilishiga Dehlaviylar oilasi katta hissa qo'shgan hisoblanadi. Shoh Valiyulloh Dehlaviy bilan o'zining yuksak cho'qqisiga chiqqan ushbu islohotchilar sulolasi Hindistonda naqshbandiya tariqatida ham rivojlantirgan (Dovudiy, 1995; Fıǵlali, 1983).

Shoh Valiyulloh islom tafakkurini rivojlanayotgan sivilizatsiya nuqtai nazaridan qayta talqin qilish va muayyan geografik mintaqaning o'ziga xos sharoitlari hamda ijtimoiy, diniy va an'anaviy tuzilishiga ko'ra islom huquqini joriy etish tarafdori bo'lgan klassik davr olimidir. Uning bunday yondashuvi asosiy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish imkonini berdi. Shoh Valiyulloh duch kelgan muammolarni to'rt fiqhiy mazhabdan biri bilan hal qildi. Uning islom huquqiga yondashuvi Hindiston sharoitlariga mos bo'lgani sababli, keyingi avlodlarda o'z izini qoldirdi va fikr islohotini ham paydo qildi. Shoh Valiyullohning bu yondoshuvi tor ma'nodagi mazhabchilik va mutaassiblikka qarshi edi (Karaman, 1996). U Qur'onni fors tiliga, o'g'illari Abdulqodir va Rafiuddin Dehlaviylar esa urdu tiliga tarjima qilib, musulmonlarning Qur'on ma'nolarini o'qib tushunishlariga imkon yaratdilar. Shuningdek, u o'g'illari bilan hadis ilmi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, bu sohaga ham salmoqli hissa qo'shgan. Shoh Valiyullohning «Hujjatulloh al-bolig'a» asari Hindistondagi islom tafakkurining yuksak namunasidir. Ushbu asar zohiriy va botiniy ilmlarga asoslanib, dinning asosiy g'oyasini, uning borliqqa bo'lgan umumbashariy qarashini

qamrab olishga va hukmlarni shu nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan asardir. Shoh Valiyulloh ilohiyotni yangicha tushunish asoslarini ochib berdi va tafsirda vaqt-makon omilining ahamiyatini ko'rsatdi (Hasaniy, 1999).

Sanoulloh Mazhariyning katta ustozlaridan yana biri shayx Muhammad Obid Sunnomiy bo'lib, u zot shayx Mirzo Mazhari Joni Jononning shayxi edi. Qozi Sanoulloh 1748-yilda shayx Sunnomiy orqali naqshbandiya tariqatiga kirishgan. Shu yili shayx Sunnomiy vafotidan keyin shayx Mirzoga bay'at qilgan.

Mazhari Joni Jonon Hindiston yarim orolidagi nufuzli sufiy, shoir, olim va siyosatchilardan biri bo'lgan. O'lkada naqshbandiya tariqatining tarqalishida muhim rol o'ynagan ushbu sufiyning to'liq ismi Shamsuddin Habibulloh Mirzo Mazhari Joni Jonon ibn Mirzo Jon ibn Abdissubhon Dehlaviy (vaf. 1781-y.) edi. Mazhari Joni Jonon 1699-yil 3-mart Kalabog' degan kichik shaharchada tug'ilgan. Oilasi Dakkadan Akbarobodga (Agra) ko'chib kelgan. Uning Muhammad ibn Hanafiy orqali Ali (r.a.)ning avlodi ekani aytiladi. Shuningdek, otasi Mirzo Jon Avrangzeb Olamgir davrida harbiy lavozimda ishlagani uchun oilasi katta hurmatga ega edi. Mirzo Mazhariyning otasi chishtiylar tariqati shayxiga bay'at qilib, sufiylik yo'liga kirganida, 1699-yili mansabidan voz kechib, oilasi bilan shaharni tark etgan. Mirzo Mazhariy safar chog'ida dunyoga kelgan (Talal: nashr yili ko'rsatilmagan). Unga otasining ismiga ishora qilib hamda o'g'il bola otasining haqiqiy hayoti ekanini ifodalash uchun «Joni Jon» nisbasini berishgan. Bu nom Avrangzebning tavsiyasi bilan berilgan degan xabar ham mavjud (Karasakal, 2016). Ammo, bu nom tez orada «Joni Jonon»ga o'zgartirilgan, shuningdek, fors va urdu tillaridagi she'rlarida qo'llagan «Mazhar» taxallusi vaqt o'tishi bilan ismiga kirib qolgan.

Otasining o'limidan ko'p o'tmay, Mirzo Mazhar Akbarobodni tark etib, Dehliga boradi. Boshida tasavvufga unchalik qiziqmagan Mazhar, Abdurasul Dehlaviydan tafsir, Imomi Rabboniy (vaf. 1624-y.) ning nabirasi Hoji Muhammad Afzal Siyalkutiyydan (vaf. 1733-y.) hadis va fiqh ilmlarini o'rgangan. Qayd etilishicha, u otasining kasbini davom ettirishni o'ylab, harbiy xizmatga kirmoqchi bo'lgan, ammo talabi rad etilganida, chishtiylar tariqati valiyalaridan Qutbiddin Baxtiyor Kokiy (vaf. 1821-y.) unga butun

kuchini ruhiy izlanishga sarflash haqida nasihat qilgani aytiladi. Shundan so'ng Mirzo Mazhar naqshbandiya tariqati shayxi Nur Muhammad Badayuniy (vaf. 1723-y.) bilan bog'lanadi. Uning Badayuniyga bo'lgan sadoqati vafotidan keyin ham davom etadi va olti yil davomida ustozining qabri oldida yolg'iz qoladi. Badayuniy umrining so'ngida Mirzo Mazharga bir ustoz topishni buyurgani uchun u yana Shoh Muhammad Zubayr, Shoh Hofiz Sa'dulloh va Muhammad Obid Sunnomiy ismli yana uch naqshbandiy shayxlardan ta'lim oladi. Shoh Hofiz Sa'dulloh unga shoirlilik iste'dodini rivojlantirishga yordam bergan bo'lsa, Muhammad Obid Sunnomiy uni qodiriy, suhrovardiy va chishtiylar tariqatlariga qo'shilishini qo'llab-quvvatladi. Shunday qilib, Mirzo Mazhar naqshbandiy-mujaddidiy silsilasining to'rt asosiy tarmog'ini o'z shaxsida birlashtirgan.

Sunnomiyning vafotidan so'ng (vaf. 1747-y.) jadal rahbarlik faoliyatini boshlagan Mirzo Mazhar Dehlida o'z ilmiy dargohini tashkil etdi. U butun Hindistonga, xususan, Gujarot, Panjob va Dakkaga o'z shogirdlarini yuborgan hamda ba'zan shaxsan o'zi ularning faoliyat markazlariga tashrif buyurib turgan. 1750-1780 yillarda sayohat qilish imkonsiz bo'lgan notinch davrga qaramay, Shayx Mirzo Dehlidan Panipatga kelib, shogirdini bir necha bor ziyorat qilgan.

1781-yil yanvar oyida Mirzo Mazhar noma'lum kishilar tomonidan uyida otib ketilgan. Mirzo Mazhar hayotida mobaynida ko'plab shogirdlar tayyorlagan bo'lib, Sanoullah Panipatiy, Naimulloh Bahroyjiy (vaf. 1803-y.) va Abdulloh Dehlaviy (vaf. 1824-y.) lar ularning ichida eng mashhurlari hisoblanadi. Naimulloh Bahroyjiy ustozining hayoti va qarashlari haqida «Maqomoti Mazhariy» hamda «Bashorati Mazhariy» nomli ikkita kitob yozgan. Abdulloh Dehlaviy (Shoh G'ulom Ali nomi bilan tanilgan) ham ustoz haqida «Maqomoti Mazhariy» nomli asar yozgan. Shuningdek, u yana Mirzo Mazhar qabri yoniga Hindistondagi eng muhim tariqatchilik markazi qurdirgan.

Shoh Valiyulloh Dehlaviy: «Bu zamonda Mirzo Joni Jononga o'xshashi hech bir o'lkada yo'q. Kimdaki sufiylikning maqomlariga yetishish istagi bo'lsa, uning oldiga borsin!», deya Mirzo Mazhariyni e'tirof etgan (Talal: nashr yili ko'rsatilmagan).

Sanoullah Panipatiy haqida Abdulaziz Dehlaviy

va boshqa zamondoshlari «Zamonining Bayhaqiysi», «Zamonining Tahoviysi», deb ta'rif bergan. Ustozi Mazhari Joni Jonon esa unga «hidoyat mezoni» unvonini berib, u haqida: «Sanoullahning darajasi yuksaklikda meniki bilan tengdir. Menga berilgan har bir ne'mat unda ham bor. U zohiriy va botiniy kamolotlarni jamlashda barcha mavjudotlarning eng ulug'voridir. Dinni mustahkamlovchi va yo'limizni munavvar qiluvchidir. Qiyomat kuni menga: «Nima olib kelding?» deyilsa, «Sanoullah Panipatiyni olib keldim», deyman. Uni ko'rganimda qalbimda ulug'vorlik hissi paydo bo'ladi. U solihlik, taqvo va diyonat ruhining timsoli kabidir. Uning tabiati farishtalarga xos», deydi (Talal: nashr yili ko'rsatilmagan).

Mazhari Joni Jononning davomchisi va Mavloni Xolid Bag'dodiyning ustoz Abdulloh Dehlaviy «Maqomoti Mazhariy» nomli asarida: «Sanoullah Panipatiy rabboniy ulamolar uchun namuna, Haq taoloning suyukli bandalaridan. Aqliy va naqliy fanlarda cheksiz ummon. Fiqh va usul ilmlarida mazhabda mujtahid darajasiga yetgan edi. Fiqh ilmi bo'yicha katta asar yozgan va bu asarida to'rt mazhab mujtahidlarining gaplarini dalillar bilan bayon qilgan. O'z fatvolaridagi kuchli nuqtalarni alohida risolada yozib qoldirgan. Shuningdek, usul ilmiga oid o'z izohlarini ham yozgan», deydi.

Yoshligida arab va fors tillaridan olgan kuchli ta'limi uning o'n ikki yoshiga qadar yuzlab forsiy baytlarni yod olishiga va aksariyat asarlarini shu tilda yozishiga sabab bo'lgan. Uning «Rahimiya» madrasasida olgan ta'limi ham katta muvaffaqiyatlarga sabab bo'ldi. Bo'sh vaqtlarida madrasa kutubxonasidagi aksariyat asarlarni o'qib chiqqan. Darslarda olgan ta'limidan tashqari, o'z mehnati va ustozlari va ayniqsa, Shoh Valiyullohning hissasi bilan xuddi ustoz kabi erkin fikrlash malakasini egallaydi (Talal: nashr yili ko'rsatilmagan).

## MUHOKAMA

Shoh Valiyulloh ma'naviy tarbiyaning qadri ilmni amaliyotda qo'llashda ekanini bilgan holda, Sanoullah Panipatiyga alohida e'tiborini davom ettiradi va Sanoullahning madrasa ta'limini do'sti shayx Mirzo Mazhari Joni Jononga ishonib topshiradi.



Shoh Valiyulloh Mirzo Mazharga: «Mavlaviy Sanoullloh «Mishkot al-masobih» va «Sahihayn»ni o‘qishda davom etmoqda. Hozirda u «Kutubi sitta»ni to‘liq va hatto hadisidagi eng mashhur o‘nta asarni o‘rgatishga qodir. Bundan buyon u sizning xizmatigizda o‘z kamolini to‘ldirishiga umid qilaman», deya maktub yozib, undan Sanoulllohning kamolot yo‘lida ustozlik qilishini so‘raydi. Ammo, shayx Mirzo o‘sha paytda hali shayx Sunnomiy xizmatida bo‘lgani sababli Sanoulllohni o‘zining shayxiga o‘tkazdi. Shunday qilib, panipatlik yosh olim shayx Sunnomiy tomonidan tariqatga qabul qilindi. Shayx Sunnomiy o‘sha yili (1748) vafot etganida, shayx Mirzo Mazhari Joni Jononga bay‘at qilgan birinchi shaxs Sanoullloh bo‘lgan. Bir necha yillik tarbiya va ta‘limdan so‘ng, o‘n to‘qqiz yoshida Mirzo Mazhari Joni Jononning o‘rinbosari bo‘lib Panipatga qaytib keladi va qozilik lavozimiga tayinlanadi. Xalqning ko‘plab fiqhiy masalalarini hal qilib bergani uchun «qozi», deb atashgan. Shundan so‘ng, Sanoullloh Mazhariy butun umrini islom shariatini o‘rgatish, yetkazish, himoya qilish va targ‘ib qilishga bag‘ishladi.

Sanoullloh o‘z vasiyatnomasida shariat asosida yashash va musulmon birodarlarining taqvoga to‘liq amal qilishlari zarurligi haqida shunday degan: «Islomiy adolat tatbiq etilishi uchun zamonaviy jamiyat manfaatlarini qurbon qilish kerak, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Alloh iymon keltirganlarga yordam beradi. Shunday ekan, o‘zini shu yo‘lda xizmatchi deb hisoblagan shogirdlarimning har biriga: shaxsiy xohish-istaklardan uzoq bo‘lishni, o‘z nafsigaga ergashmaslikni, aksincha, o‘z haqiqat va hukmlarini eng ishonchli manbalar asosida amalga oshirishini maslahat beraman» (Talal: nashr yili ko‘rsatilmagan).

Sanoullloh Panipatiyning ikki xotinidan biri Bibi Achibening sufiylik yo‘lidan yurganligi va Mazhari Joni Jononning o‘rinbosari bo‘lgani aytiladi. Sanoullloh Panipatiyning o‘zidan keyin o‘rinbosar qoldirgani haqida esa ma‘lumotlar yo‘q (Tosun, N., 2009).

## NATIJA

Ilmiy merosi. Qozi Sanoullloh «Rahimiya» madrasasidagi ustozlarining taqvosi, fidoyiligi va mahorati tufayli Qur‘on va hadis ilmlarida chuqur

bilimga ega bo‘ldi. Uning tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf kabi turli sohalarida o‘ttiz uchta asari bo‘lib, ulardan faqat sakkiztasigina nashr etilgan. Shayx Mirzo Mazharning iltimosiga ko‘ra, Rasululloh (s.a.v.)ning siyratlari haqida «Fiqh as-sunnat» asarini yozgan. Ustoziga bag‘ishlab yozgan 10 jildlik «Tafsir al-Mazhariy» asari ham fiqhga, ham tasavvufga katta hissa qo‘shgan. Shuningdek uning quyidagi asarlari mavjud:

Tafsirga doir: «Tafsiri panj oyat az avvali surayi Baqara bi toriqi sufiyya sofiyya», «Javohirul Qur‘on».

Hadisga doir: «Risolayi chihil hadis ma‘a sharh va bayon», «Tarjimayi Shamoyili Termiziy».

Fiqhga doir: «Fatovoyi Mazhariy», «Risolayi panj ro‘ziy dar usuli fiqh», «Risolayi fiqh dar mazohibi arbaa», «Lo budda minhu» («Rohi najot» yoki «Kashf al-hujja» nomi bilan tarjima qilingan holda nashr etilgan. Kanpur, 1873; Dehli, 1956), «Risola dar hukmi surud va g‘ino», «al-Ahzob al-aqvo», «Manor al-ahkom».

Tasavvufga doir: «Irshod at-tolibin» (Dehli, 1899), «Tazkirat al-ilm val-maorif», «Risolayi ihqoq dar raddi i‘tirodati shayx Abdulhaq Muhaddis Dehlaviy bar kalomi Hazrati Mujaddid» (Abdulhaq Dehlaviyning Imomi Rabboniyga qilgan tanqidlariga javoban forsha yozilgan asar), «Risola dar shubuhot bar kalomi Imomi Rabboniy», «Risola dar bayoni avlodi Imomi Rabboniy», «Favoidi sab‘a», «Kayfiyati muroqaba va azkori sharia», «Risola dar avrod va vazoiif», «Risolayi talhis havomiy».

Aqidga oid: «Risola dar taqdisi voliday al-Mustafo», «Risola dar aqoidi haq», «Risola dar raddi mut‘a», «Risola dar raddi ravofiz», «as-Sayf al-maslul», «Risolayi shamshiri berahna».

Turli mavzularga doir: «Haqiqat al-Islom» (Laknav, 1844; Istanbul, 1990), «Tazkirat al-mavt val-qubur» (Lahor, 1871; Istanbul, 1990), «Tazkirat al-maad» (Kanpur 1863), «Fasl al-xitob fi nasihat al-albob», «Risola dar zikri nasabi izhor va azvoji muborak va avlodi Ali javhari Sarvari olam (a.s.)», «Risolayi Hojasta Guftor dar manoqibi ansor (r.a.)», «Risola ba surati maktub ba mavlaviy Muhammad Salar dar samo‘», «Risola fi-l-ushr va-l-xaroj».

## XULOSA

Tasavvufning Hindiston yarimorolidagi yetakchi namoyandalaridan biri qozi Muhammad Sanoullloh Panipatiy o‘z davri va undan keyingi davrlarga

o'z asarlari bilan ta'sir ko'rsatgan ulug' mufassir olimlardan hisoblanadi. Ustozlari va zamondoshlari uning ilmiy salohiyatini yuqori baholab, turli unvonlar berishgan. Tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf olimi bo'lgan Muhammad Sanoullah shar'iy ilmlar bo'yicha ta'limni tamomlagach, tariqat ilmlarini ham o'rganib, umrining oxirigacha asarlar yozish va shogirdlar tayyorlash bilan islom dini rivojiga xizmat qilgan. Hind musulmon ulamolari, ularning faoliyati, asarlari, xususan, Sanoullah Mazhariy islom ilmiy merosi, uning islomiy qadriyatlarni saqlab qolish, o'zlikni yo'qotmaslik, ham ruhan, ham jismonan pok bo'lish haqidagi qarashlarni tahlil qilgan. Shuningdek, hind ulamolari islom sivilizatsiyasida ilm-fan rivojiga hissa qo'shgan ulamolar faoliyatini o'rganish va shu orqali xalqaro ilmiy ishlarni yurtimizda tadbiq qilishdek masalalarni o'z ichiga olganlar.


#### MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdülhamit Birişik. (2001). Hind altkitasi düşünce ve tefsir ekolleri. Istanbul: İnsan Yayınları.
2. Birişik, A. (1998). Hindistan: VI. Hindistan'da İslâm Araştırmaları. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (DİA), 18, 94-101. İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı.
3. Tosun, N. (2009). Senâullah Pânîpetî. In Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (Vol. 36, pp. 506-507). İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı.
4. Cemalettin Özdemir. (1989). Şah Veliyyullah Ahmed İbn Abdirrahim ed-Dehlevi Hayatı, Eserleri ve Fikirleri, Yayınlanmamış Yüksek Lisans Tezi. Ankara: A.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü.
5. Ethem Ruhi Fığlalı. (1983). XIX Yüzyıl Sonlarında Hindistan (Mezhepler Tarihi Açısından Bir Bakış). Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi.
6. DeLorenzo, Y. A. T. (1980). The life and works of Qadi Thana Allah of Panipat. \*Hamdard Islamicus, 3\*(3), 81-94. Karachi, Pakistan: Hamdard Foundation.
7. Hayrettin Karaman. (1996). İslam Hukukunda İctihad. İstanbul: M.Ü. İlahiyat Fakültesi Vakfı Yay.
8. Hayrettin Karaman. (2000). Şah Veliyyullah, Hayatı ve Eserleri. İctihad, Taklid ve Telfik Üzerine Dört Risâle. İstanbul: İz Yay.
9. M.Nuri Pakdemirli, Abdülhamit Birişik. (2013). Hint Altkitasi Geleneksel Öğretim Kurumlarında Yürütülen Din Eğitimi. Dinbilimleri Akademik Araştırma Dergisi.
10. Mahmud Hasan Orif Zokir. (1995). Tazkira Qozi Muhammad Sanoullah Panipati. Lahor: Saqafatul Islomiya.
11. Mehmet Erdoğan. (1994). Şah Veliyyullah Dihlavî. İstanbul.
12. Ömer Nasuhi Bilmen. (2014). Tabakâtu'l-Müfessirîn. İstanbul. J. II.
13. Sharif Abdulhay ibn Faxriddin Hasaniy. (1999). Nuzhatul xavotir vabahjatul masami' van navozirur i'lam bi man fi tarixil Hind minal a'lam. Dor Ibn Hazm.
14. Siyalkutî, Muhammed Beşir. (n. d.). Eş-Şah Veliyyullah: Hayâtuhû ve Da'vâhu. İslamabad.
15. Şükrü Özen. (1992). Şah Veliyyullah, Hayatı, Mücadelesi ve Eserleri. Mezheplerin Doğuşu ve İctihad Tartışması. İstanbul: Pınar Yayınları.
16. Zafarulloh Xolid Dovudiy. (1995). Pakistan ve Hindistan'de Şah Veliyyullah ad-Dehlavi'den Günümüze Kadar Hadis Çalışmaları. İstanbul: İnsan Yayınları.

#### REFERENCES

1. Birişik, A. (2001). Hind Altkitasi Düşünce ve Tefsir Ekolleri. İstanbul: İnsan Yayınları.
2. Birişik, A. (1998). Hindistan: VI. Hindistan'da İslâm Araştırmaları. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (DİA), 18, 94-101. İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı.
3. Tosun, N. (2009). Senâullah Pânîpetî. In Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi (Vol. 36, pp. 506-507). İstanbul: Türkiye Diyanet Vakfı.
4. Özdemir, C. (1989). Şah Veliyyullah Ahmed İbn Abdirrahim ed-Dehlevi: Hayatı, Eserleri ve Fikirleri. (Unpublished Master's thesis). Ankara: A.Ü. Sosyal Bilimler Enstitüsü.
5. Fığlalı, E. R. (1983). XIX Yüzyıl Sonlarında Hindistan (Mezhepler Tarihi Açısından Bir Bakış). Dokuz Eylül Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi.
6. DeLorenzo, Y. A. T. (1980). The Life and Works of Qadi Thana Allah of Panipat. Hamdard Islamicus, 3(3), 81-94. Karachi, Pakistan: Hamdard Foundation.
7. Karaman, H. (1996). İslam Hukukunda İctihad. İstanbul: M.Ü. İlahiyat Fakültesi Vakfı Yayınları.
8. Karaman, H. (2000). Şah Veliyyullah, Hayatı ve Eserleri: İctihad, Taklid ve Telfik Üzerine Dört Risâle. İstanbul: İz Yayınları.
9. Pakdemirli, M. N., & Birişik, A. (2013). Hint Altkitasi Geleneksel Öğretim Kurumlarında Yürütülen Din Eğitimi. Dinbilimleri Akademik Araştırma Dergisi.
10. Zokir, M. H. O. (1995). Tazkira Qozi Muhammad Sanoullah Panipati. Lahore: Saqafatul Islomiya.

11. Erdoğan, M. (1994). Şah Veliyullah Dihlavî. İstanbul.
12. Bilmen, Ö. N. (2014). Tabakâtu'l-Müfessirîn (Vol. 2). İstanbul.
13. Sharif Abdulhay ibn Fakhr al-Din al-Hasani. (1999). Nuzhat al-Khawatir wa Bahjat al-Masami' wa al-Nawazir: Al-I'lam bi Man fi Tarikh al-Hind min al-A'lam. Beirut: Dar Ibn Hazm.
14. Siyalkutî, M. B. (n.d.). Eş-Şah Veliyyullah: Hayâtuhû ve Da'vâhu. Islamabad.
15. Özen, Ş. (1992). Şah Veliyyullah: Hayatı, Mücadelesi ve Eserleri, Mezheplerin Doğuşu ve İctihad Tartışması. İstanbul: Pınar Yayınları.
16. Zafarulloh Xolid Dovudiy. (1995). Pakistan ve Hindistan'de Şah Veliyullah ad-Dehlavi'den Günümüze Kadar Hadis Çalışmaları. İstanbul: İnsan Yayınları.



ЎЗБЕКИСТОН ХАЛҚАРО ИСЛОМ АКАДЕМИЯСИ  
ИМОМ МОТУРИДИЙ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-ТАДҚИҚОТ МАРКАЗИНИНГ  
«МОТУРИДИЙЛИК» ЖУРНАЛИ

Мазкур нашр олий ўқув юртлари ва илмий-тадқиқот муассасаларининг  
профессор-ўқитувчилари, докторантлари, мустақил тадқиқотчилари, магистрантлари,  
талабалари ва кенг китобхонлар оммасига мўлжалланган.

Тахририят фикри муаллиф нуқтаи назари билан бир хил бўлмаслиги мумкин.  
Журналдан кўчирма олинганда манба қайд этилиши шарт.

# MOTURIDIYLIK



The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

4/2024

Бош муҳаррир: **Ж.Каримов**

Муҳаррир: **З.Фахриддинов**

Нашр учун масъул: **З.Арслонов**

Чет тилларидаги матнлар муҳаррири: **О.Сотволдиев**

Дизайнер-саҳифаловчи: **З.Ғуломов**

Нашриётнинг лицензия рақами АИ № 0011. 06.05.2019 йил.

Босишга 25.01.2025 йил рухсат этилди. Бичими 60×84 ¼.

Ризограф усулда босилди. Шартли босма табағи 10,2.

Нашр табағи 10,4. Буюртма № 23/1.

Баҳоси шартнома асосида.

«Standard Poligraf Service»

МЧЖ қўшма корхонаси босмахонасида чоп этилди.

100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, Фозилтепа кўчаси, 12Б.